

Djumanqulov Azamat Abdurahimovich
doktorant,
Mirzo Ulug 'bek nomidagi O 'zbekiston Milliy universiteti

(TZBEKISTON OLIY TA'LIM TIZIMIDA O'QITISHNING KREDIT MODULLI TIZIMINI JORIY ETISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning ilk yillaridanoq ta'lim tizimini tubdan isloh etishga kirishdi. Mamlakat o'z oldiga qator vazifalarni qo'ygan edi: Ijtimoiy-siyosiy hayotda demokratik huquqiy davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini qurish, fuqarolar huquqiy madaniyatini oshirish, davlat boshqaruvida shaxs manfaatlarini har tamonlama ustunligini taminlash; iqtisodiy- madaniy hayotda Respublikani jahon mamlakatlari orasidagi mavqeini oshirib borish, mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish, jumladan, respublikani xom ashyo bazasidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi davlatga aylantirish, xalqimizni milliy g'urur tuyg'usini shakllantirish, madaniy- tarixiy meros va an'analariga hurmat uyg'otish, zamonaviy intellektual bilm egalari bo'lgan malakali kadrlarni tayyorlash kabilar dolzarb vazifaga aylangan edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqida qator masalalar haqida gapirib, jumladan shunday degan edi: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi.

Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta boylik - bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros - bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik - bu bilimsizlikdir"!

Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak.

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini beradi. Zero, bugun dunyoda barcha sohalariga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda" [1].

Yurtimizdagi ilg'or oliy ta'lim muassasalarida an'anaviy o'qitish tizimidan voz kechilib, dunyo tajribasidan o'tgan usul va uslublardan foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. 2013-yildan buyon mamlakatimizdagi tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, 2016-2017-o'quv yilidan Toshkent davlat yuridik universitetida talabalar o'qitishning modul tizimi asosida ta'lim olayotgan bo'lsa, 2018-2019-o'quv yilidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetid kredit tizimiga o'tildi.

"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmonida ta'lim sifati zamonaviy yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlani shiga munosib hissa qo' shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish, ta'lim sifatini yaxshilash borasidagi ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga tatbiq etish jarayonlarini jadallashtirish, oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish kabilar ko'zda tutilgan edi [2].

Modul va kredit tizimlari bir-birini to'ldiradi. Modul alohida o'quv fani bo'lib, o'zida tegishli bilim hamda kasbiy jihatlariga doir ma'lumotlarni qamrab oladi. "Modulli o'qitishda, o'quv dasturlarini to'la, qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan tabaqalash orqali, o'qitishni tabaqalashtirish imkoniyati mavjud bo'ladi, ya'ni o'qitishni individuallashtirish mumkin bo'ladi" [3].

"Modulli ta'lim- o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimiga yaxshi moslashgandir. Modulli o'qitish asosi inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganiga tayanadi" [4].

MODULLI TA'LIM QUYIDAGILARDAN TARKIB TOPGAN BO'LADI:

Modulli dastur	Modulli darslar	Modulli o'quv materialni rejalashtirish (texnologik xarita)
-----------------------	------------------------	--

O'qitishning modul tizimi talabani fan dasturini o'rganishi natijasida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadi. Masalan, talabalarning bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasining davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari o'tkaziladi. Akademik kredit tizimi esa talabani oliy o'quv yurtida samarali bilim olishini aniqlab beruvchi standartlashtirilgan baholash tizimi hisoblanadi. Kredit talaba tomonidan tegishli o'quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt(soatlar)dan tashkil topadi. Har bir modul mustaqil kredit hisobiga ega. Oliy ta'lim muassasasi kredit tarkibi, har bir modul bo'yicha kreditlar soni, shuningdek, har bir kursni va umuman o'qish davrini tamomlash uchun talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiy sonini mustaqil belgilaydi.

Amaldagi o'qitish tizimidan farqli o'laroq kredit tizimida majburiy fanlardan tashqari tanlov fanlari hamda talabani shaxsiy dars jadvali bo'ladi. Qaysi fandan belgilangan kreditlarni yig'olmasa, faqat o'sha fanning o'zidan qayta imtihon topshiradi. Oliy ma'lumot olganligi to'g'risidagi diplom esa belgilangan kreditlarni yiqqanidan so'nggina beriladi. Semestr yakunida talabalar bahosining 50 foizini fan o'qituvchisi, 50 foizini universitet rahbariyati qo'yadi. Ya'ni, bir semestr davomida oraliq nazorat, uyga vazifalar va amaliy mashg'ulot (laboratoriya) ishlarini professor-o'qituvchilar baholaydi. Yakuniy nazorat universitet rahbariyati tomonidan olinadi. Unda fan o'qituvchilari ishtirok etmaydi.

Mutaxassislar fikricha, kreditlarni yig'ish uchun talabadan darslarda qatnashish, berilgan vazifalarni vaqtida bajarish, o'z bilim saviyasini namoyon etish talab etiladi. O'zlashtirishi yuqori talabalar mustaqil ish mavzularini o'rganib, ulami muddatidan oldin topshirishi mumkin. Bu bo'laj ak mutaxassislarning vaqtini tejaydi. Zimmasidagi "yuk"dan xalos bo'lganlar semestr yakuniga qadar qolgan vaqtini amaliy mashg'ulotlarga sarflaydi.

Bu tizim 1989-yili bir qancha Yevropa universitetlarida sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan. Dastlab, ECTS kreditlash tizimi SOCRATES / ERASMUS dasturi (1988-1995) asosida ishlab chiqilgan. Ushbu tizim tajriba sxemasi bo'yicha 6 yil davomida sinov davrida bo'lib, unda Yevropa Ittifoqidagi 145 ta universitet ishtirok etib, 5 ta ta'lim yo'nalishini qamrab oldi: MBA (biznes boshqaruvi), kimyo, tarix, texnik-mexanika va tibbiyot. 1996-97 yillarda ECTS tizimi 38 ta yangi uni ver sited arda (shu jumladan 348 ta fakultetda) va 36 ta nostandart universitetlarda (shu jumladan 206 ta fakultetda) qo'llanila boshlandi[5],

ECTS (Evropa kredit tizimiga o'tkazish)dan foydalanish ayniqsa quyidagi mamlakatlarda keng tarqalgan: Gretsiya va Shvetsiya (80%), Finlyandiya va Polsha (81,5%), Avstriya (84%), Ruminiya (87%), Norvegiya (90%), Irlandiya va Daniya (93%). ECTS dan tashqari tizimlar Buyuk Britaniya (45,5%) va Turkiyada (58%) eng ko'p qo'llaniladi. Ba'zi mamlakatlarda nisbatan katta foiz na ECTS tizimidan va na boshqa shunga o'xshash tizimdan foydalanmaydi: masalan, Portugaliyada (34%), Bolgariyada (38,5%) va Vengriyada (44%). Janubi-Sharqiy Evropa[6],

Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimini yuzaga chiqarish hamda talabani mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Bugungi kunda Yevropa kredit tizimi Yevropaning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida amaliyotga joriy etilgan.

So'nggi yillarda, mamlakatimiz OTMLarida ham bosqichma bosqich kredit-modul o'qitish tizimiga o'tish ishlari boshlab yuborilgan. Xususan, 2030 yilgacha kredit-modul tizimi joriy etiladigan OTMLar soni 2 tadan 85 taga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy o'qitish modelida o'qituvchi o'quv jarayonining asosiy tashkilotchisi va ma'lumot tarqatishning bosh manbasi hisoblanadi. O'z navbatida, auditoriya mashg'ulotlari o'quv jarayonining asosiy qismini tashkil etadi. Kredit-modul tizimiga o'tish bilan o'qituvchining o'quv jarayoni asosiy tashkilotchisi

hamda ma'lumot tarqatishning yagona manbasi sifatidagi roli susayadi. Talaba ushbu o'quv jarayoni markazida bo'ladi. Bunda u mustaqil ta'lim olishi mumkin. Mazkur tizimning joriy etilishi ta'lim sifatini oshirish, bujarayonda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatni mustahkamlashda muhim omil bo'lishi zarur.

II-jadval

Modulli o'qitish texnologiyasining an'anaviy o'qitishdan farqli xususiyatlarini quyidagi jadvalda keltirdik [7]

An'anaviy o'qitish texnologiyasiga asoslangan:	Modulli o'qitish texnologiyasiga asoslangan:
• Bir tomonga yo'naltirilgan axborot. Bir tomonlama muloqot (darslik-o'qituvchi-o'quv- chi) • Axborot olish • Xotirada saqlash (Ma'nosini tushunmagan holda mexanik tarzda yodlash).	• Fikrlash va amaliy faoliyat orqali tahsil olishda faol ishtirok etishni rag'batlantirish. • Ikki tomonlama muloqot • Tahlil qilish orqali ma'lumotni eslab qolish • Bilim va ko'nikmalarni namoyish etish • Mazmunni tushuni sh va hayotga bog'lash.

Kredit-modul tizimini joriy etishda, avvalo, OTMda o'qituvchilar ko'nikmasini, bilimini shakllantirishga e'tibor qaratish kerak bo'ladi. O'quv materiallari, o'quv muassasasi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, talabalarning mustaqil o'qish madaniyatini shakllantirish, ularning u yoki bu yangilikni qabul qilishi darajasi ham g'oyat muhimdir.

Modulli o'qitish — tartibli o'qitish, demakdir. Bunda o'quv material 1 ta o'quv mashg'uloti hajmida, o'quv predmetining biror mavzusi yoki biror bo'limi darajasida, ba'zan esa o'quv fanining yirik tarkibiy qismida, ya'ni bloklar tarzida ham o'qitilishi mumkin.

Modullar, birinchi navbatda, ta'lim mazmuniga daxldor tushunchalar, qoidalar, nazariyalar, qonunlar va ular orasidagi umumiy bog'lanishni ifodalovchi qonuniyatlarni tushuntirishga samarali xizmat qiladi. Modulli o'qitishning nazariy asoslari o'tgan asrning 60—70-yillari amerikalik olim Kurch Goldshmidt, Rassel va boshqalar tomonidan yaratilgan. Olimlarning ilmiy izlanishlari natijasida “o'qitish jarayoni ilmiy-texnik taraqqiyot darajasidan orqada qolishining asosiy sababi - o'quv dasturi, hujjatlarning fan-texnika yutuqlari va ishlab chiqarishni tashkil etish texnologiyasiga mos ravishda takomillashmayotganligidadir” [8], degan xulosaga kelingan. Shu bilan birga, o'quv- dasturiy hujjatlarni modulli qoida asosida tuzish ta'lim jarayonini jadallashtirishning muhim omillaridan biri ekanligi ham ta'kidlangan.

Modul tizimi zamonaviy talablarga to'la mos keladi. U erishilgan natijani izchil nazorat qilib borishga asoslangani uchun ham modul-kredit tizimi vujudga kelgan. Modulli ta'limning maqsadi talabalarning soha bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Kredit-modul o'qitish tizimi esa, har bir o'quv moduli tarkibini tuzishga asoslangan modulning o'quv natijalari va yakuniy nazoratni kuzatib borish orqali ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini muntazam ravishda baholab boruvchi o'quv dasturini o'zlashtirish jarayonini tashkil etish tizimi hisoblanadi.

Mazkur o'qitish tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash

mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Kredit birliklari tizimiga to'xtaladigan bo'lsak, bu kredit dasturlarini uning tarkibiy qismlari, ya'ni modullar, modullar bloklari, kurslar va boshqalarga biriktirish orqali ta'lim dasturlarini tavsiflashning tizimli

usulidir.

Kredit-modul o'qitish tizimi o'quv jarayonining quyidagi shakllaridan tashkil topadi:

- auditoriya mashg'ulotlari - ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv

(klinik) amaliyoti;

- auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar - ilmiy kutubxonada ishlash, mustaqil ishlar, individual maslahatlar, klinik vazifalar, ishlab chiqarish (malaka) amaliyoti, kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, ta'lim oluvchilarning ilmiy anjumanlarda qatnashishi, magistratura mutaxassisliklarida ilmiy faoliyat turlari va boshqalar.

Odatda, kredit ta'lim oluvchi tomonidan o'quv rejasi bajarilishining ko'rsatkichi bo'lib, tegishli o'quv ishlarini bajarishga ketadigan vaqt (soat)lardan tashkil topadi. Bu modul xususiyati va bo'lajak mutaxassisni shakllantirish uchun o'quv ishlarining muhimligidan kelib chiqib ta'lim muassasasi tomonidan belgilanishi mumkin. Har bir modul mustaqil kreditga ega bo'ladi.

Qayd etish o'rinliki, kredit-modul tizimiga o'tish - davr talabi. Bu tizimda o'qituvchilarni talabalar tanlaydi. Tanlov fanlari soni ko'paytiriladi, ya'ni talaba o'z yo'nalishi bo'yicha tanlab o'rganishi mumkin bo'lgan fanlar soni ko'p bo'ladi.

Ammo kredit-modul tizimida kerakli ballni yig'a olmagan talabalar OTMlarda uzoq yillar o'qishiga to'g'ri keladi.

Modulli ta'limda pedagog tinglovchining o'zlashtirish jarayonini tashkil etadi, boshqaradi, maslahat beradi, tekshiradi. Talaba esa yo'naltirilgan obyekt tomon mustaqil harakat qiladi. Eng katta urg'u ham talabalarning mustaqil ta'lim olishiga qaratilgan.

Shu o'rinda talabaning mustaqil ta'lim olish masalasini, anglosakson va Sharq madaniyatini taqqoslagan holda, turli madaniyatlar misolida ko'rib chiqsak. Anglosakson madaniyatida ushbu ikki ishtirokchi bir-biridan quyidagilarni kutadi:

- o'qituvchi talabadan o'rganilayotgan fan bo'yicha o'z fikrini erkin ifoda etishini kutadi. Ba'zan bu fikr o'qituvchi nuqtai nafari bilan mos kelmasligi mumkin. O'qituvchi bilimlarning samarali o'zlashtirilishi o'qituvchi-talaba va talaba-o'qituvchi o'rtasidagi aloqaga bog'liqligini yaxshi biladi.

- talaba o'qituvchidan bilimning o'zini emas, bilim olish yo'llarini ko'rsatishini xohlaydi. Bunda o'qituvchi u yoki bu savolning javobini bilmasligi talaba uchun normal holat hisoblanadi. Talaba o'qituvchidan o'z savoliga o'zi javob topa olishi mumkin bo'lgan manbalarni ko'rsatishini istaydi. Bundan tashqari, talaba o'qituvchidan ma'lum ravishda tuzilgan ko'rsatmalar berishini kutadi. Chunki u yoki bu topshiriqni qay tarzda yechishni uning o'zi yaxshi biladi. Masalan, G'arbda doktorlik dissertatsiyasini yozish bo'yicha aniq ko'rsatma (masalan, unda sahifalar soni qancha bo'lishi, tadqiqot ob'ekti va sub'ekti kiritilishi) mavjud emas.

Sharq madaniyatida o'qituvchi va talaba bir-birlaridan quyidagilarni kutadi:

- o'qituvchi talabadan o'qituvchining tegishli belgilangan rejaga muvofiq o'qitayotgan bilimlarini e'tibor bilan tinglashini va o'zlashtirishini xohlaydi (chunki talaba rektorat tomonidan mazkur rejaga ko'ra baholanadi). O'qituvchi u yoki bu o'quv rejasida belgilangan bilimlarni tarqatuvchi yagona to'g'ri manba ekanini biladi.

- talaba o'qituvchining o'z fanini yaxshi o'qishini xohlaydi, chunki uning u yoki bu savolning javobini bilmasligi talabalar orasida o'qituvchi malakasiga nisbatan shubha uyg'otadi. Talaba bilimlarning samarali o'zlashtirilishi faqat o'qituvchi malakasiga bog'liq, deb o'ylaydi. Bundan tashqari, talaba o'qituvchidan faqat aniq ko'rsatmalar, masalan, nazorat ishini qanday yozish kerak, uy vazifasini qay tarzda bajarish kerakligini o'rgatishini kutib turadi[9],

Davlatimiz rahbari tomonidan Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi nutqida 2020 yilga «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» deb nom berilishi ham sohaga bo'lgan e'tibor jiddiy ekanligidan darak beradi[10].

Xulosa qilib aytganda, keyingi yillarda O'zbekistonda ta'lim va ilm-fanga e'tibor yanada ortmoqda. Oxirgi yillar sohaga doir O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining yetmishgayaqin qaror, farmon va farmoyishlari qabul qilindi. Bu kabi o'zgarishlar vayangilanishlar jarayoni yangi O'zbekistonni barpo etishdek ulug'vor maqsadimizni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasidan ham ko'rish mumkinki ta'lim mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biridir. Mamlakatimizda ham mustaqillik tufayli shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligiga e'tibor

ortdi. Yosh avlodda mehnatsevarlik, insonparvarlik, vatanparvarlik, iymon- e'tiqodlilik, halollik, axloqiy poklik, odillik, bilimlilik, onglilik, baynalmilallik kabi insoniy fazilatlar asosida zamonaviy bilim vaxorijiy ta'lim tajribalarini rivojlantirish uchun yetarli sharoitlar yaratilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. <https://www.norma.uz>. 2020-yil 24-yanvar kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga joriy yil va kelgusidagi mamlakatimiz taraqqiyotining eng ustuvor vazifalari to'g'risida Murojaatnomasi.
2. <https://www.lex.uz>. 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni.
3. Avliyakulov N.X., Musayeva N.N, Pedagogik texnologiya. T.2012. "Tafakkur bo'stoni" nashriyoti. 130-bet.
4. Xudouqulov X.J.. Allayarova S.H. Oliy ta'limda modulli o'qitish va unda innovatsion texnologiyalardan foydalanish". T.2019. "Mumtoz so'z". 9-bet.
5. Обзор зарубежных кредит-систем(по материалам научных исследований, выполненных МГУ им. М.В. Ломоносова в рамках проекта ФПРО 2005 года и национального проекта 2006 года)-С.5.
6. Обзор зарубежных кредит-систем(по материалам научных исследований, выполненных МГУ им. М.В. Ломоносова в рамках проекта ФПРО 2005 года и национального проекта 2006 года)-С.5-10.
7. SharopovaZ.F. Ta'lim texnologiyalari. T.2019. "NAVRO'Z" NASHIRYOTI. 191-bet.
8. <http://marifat.uz/marifat/ruknlar/olii-talim/2279.htm>
9. <http://uza.uz/uz>
10. Zikirova, N., et al. "Interactive Strategies and Methods of Education." International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE) ISSN (2019): 2277-3878.
11. Namazova, Yulduz. "National education system in the educational ideas of jadidism." The Light of Islam 2020.3 (2020): 47-57.
12. Шермухамедова, Нигинахон Арслановна. "Некоторые суждения Абу-Насра аль-Фараби о соотношении логики и грамматики." Credo new 2 (2002): 10-10.
13. Нишанова, О. (2023). Роль этнической культуры в формировании идеологического иммунитета молодежи, in Library, 7(2), 27-30. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/archive/article/view/21844>